



# SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




## SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2021- YILNING  
YANVAR-DEKABR OYLARIDA

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.



Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **18 656,7** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **4 570,6** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **121,6 %** ni tashkil etdi.

### Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



## Dastlabki ma'lumotlar


2021- yil yanvar-dekabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>18 656,7</b>	<b>121,6</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	833,3	114,9
Moliyaviy xizmatlar	2 615,2	120,8
Transport xizmatlari	4 690,0	126,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	4 462,3	124,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	537,2	118,5
Savdo xizmatlari	5 155,1	109,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	453,6	128,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 002,5	134,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	396,8	140,0
Ijara xizmatlari	581,9	125,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	538,2	132,6
Shaxsiy xizmatlar	776,2	119,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	609,2	173,5
Boshqa xizmatlar	467,5	129,4

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **27,6** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport (**25,1** %), moliyaviy xizmatlar (**14,0** %), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlar (**5,4** %) bo'yicha qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da




## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi **4 690,0** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2020- yilga nisbatan **26,6** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **25,1** % ni tashkil etdi.

### Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **95,1** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **96,3** % ni tashkil etgan.

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelmoqda. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

### Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- yil

2021- y. yanvar-dekabr



Yuk tashish



Yo'lovchi tashish

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **71,6** % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **71,7** % ni tashkil etgan.


Info

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **27,6** % ni tashkil etib, bu **5 155,1** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda ularning hajmi **4 205,2** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **29,9** % iga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari



## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtidan uch qismini, aniqrog'i, **75,8 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **15,5 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**8,7 %**) tashkil etdi.

### Savdo xizmatlarining tarkibi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda chakana savdo ulushi **75,4 %** ga yetgan.



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Moliyaviy xizmatlar**  
*(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)*

2021- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **2 615,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda ularning hajmi **2 123,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **14,0** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda ularning ulushi **15,1** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **491,6** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **20,8** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda ularning o'sish sur'ati **124,0** % ni tashkil etgan.

## Dastlabki ma'lumotlar

## 2021- yil yanvar-dekabr


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,3 %** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **4,0 %** ini tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **92,7 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,2 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **3,1 %**.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2021- yil yanvar-dekabr**



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

**2020- yil**

**2021- y. yanvar-dekabr**




Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar




2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 002,5** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,4 %** ini tashkil etdi. 2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati **134,3 %** ni tashkil etdi.



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**



Dastlabki ma'lumotlar


2021- yil yanvar-dekabr

Info

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2020-yilga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **137,2** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

2020- yil

Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar

2021- y.  
yanvar-  
dekabr



2021- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,6** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda ushbu xizmat turlarining ulushi **88,7** % ni tashkil etgan.

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>18 656,7</b>	<b>121,6</b>	<b>101,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	7 939,0	127,0	102,4
Kattaqo'rg'on sh.	429,4	118,0	95,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	654,3	118,6	110,4
Bulung'ur	502,6	119,9	102,3
Jomboy	855,0	117,6	105,9
Ishtixon	676,8	115,7	98,2
Kattaqo'rg'on	764,4	115,6	111,4
Qo'shrabot	370,8	115,3	98,7
Narpay	628,6	116,6	99,7
Payariq	677,4	118,7	104,6
Pastdarg'om	1 149,7	116,7	92,0
Paxtachi	412,8	114,7	114,6
Samarqand	1 172,6	117,1	97,4
Nurobod	360,4	114,3	97,1
Urgut	1 195,2	118,6	92,1
Toyloq	867,7	126,1	100,6

Info

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning  
o'sishi

4 676,4  
ming so'm

1 076,1  
ming so'mga

119,2 %

O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 676,4** ming so'mga yetdi.

2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati **119,2 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:**  
2020- yilda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **3 600,3** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilga nisbatan o'sish sur'ati **99,1 %** da qayd etilgan.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 66-230-45-34